ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti



13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

№1(2)
2026

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Elektron nashr. 444 sahifa,
20-yanvar, 2026-yil.

**BOSH MUHARRIR:**
**Karimova E'zoza Gapirjanovna –** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Pedagogika fanlari doktori, professor

*TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI*
***Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik***
***Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik***
***Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor***
***Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor***
***Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)***
***Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)***
***Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)***
***Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)***
***Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)***
***Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)***
***Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent***
***Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor***
***Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor***
***G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)***
***Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent***
***Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti***
***Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor***
***Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent***
***Doniyorov S. M. –"Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)***
***Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent***
***Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori***
***Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari***
***Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)***
***Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent***

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**
**Karimova E'zoza Gapirzhanovna –** Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

***EDITORIAL BOARD MEMBERS:***
***Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician***
***Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician***
*Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor*
***Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor***
***Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)***
***Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)***
***Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)***
***Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)***
***Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)***
***Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)***
Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
***Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor***
*Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor*
***Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)***
***Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor***
***Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor***
***Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service***
***Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor***
***Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)***
***Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor***
***Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics***
***Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor***
***Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region***
***Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences***
***Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor***

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
• Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
• Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)
Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
• Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
• Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarini maktab ta'limiga tayyorligini aniqlash ............................ 16
Akramova Dildora Ergashboy qizi

Bola tarbiyasida o'yinning ahamiyati ............................ 21
Choriyeva Durdona Anvarovna, O'ktamova Nasiba Ravshan qizi

O'quvchilarning loyiha-tadqiqot faoliyatini tashkil etishning ilmiy asoslari ............................ 25
Sobirova Nilufar Azimboy qizi

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik jarayonni tashkil etish ............................ 29
Choriyeva Durdona Anvarovna, Ko'zibayeva Nasiba O'tkir qizi

Maktabgacha yoshdagi bolalarda sensor tarbiyani rivojlantirish texnologiyalari ............................ 32
Choriyeva Durdona Anvarovna, Allaberdiyeva Mardona O'tkirbek qizi

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni jismoniy tarbiyalash mazmuni va vazifalari............................ 37
Choriyeva Durdona Anvarovna, Mirsharafova Shahinabegim Saidabbos qizi

Gandbolchi sportchilarni jismoniy tayyorgarligida harakatli o'yinlarning tarbiyaviy rivojlantiruvchi vazifalari ............................ 41
Ibodullayeva Munira Atabek qizi

Boshlang'ich sinflarda dars samaradorligini oshirishda noan'anaviy usullardan foydalanish samaradorligi............................ 44
Yusufaliyeva Gulnora Abduraxmonovna

Modern Requirements for a Teacher's Pedagogical Skills in the Context of Digital Transformation in Education............................ 49
Abira Bakhramova

Ta'lim muassasalarida o'smir yoshlarning ijtimoiylashuv jarayonini samarali tashkil etishga yordam beruvchi pedagogik omillar va shart-sharoitlar ............................ 54
Artikova Gulnoza Xasanovna

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida iqtisodiy tarbiya berishning nazariy-pedagogik asoslari ............................ 57
Mamadaliyeva Nilufar Bahodirovna

Kognitiv lingvistika va konseptologiya masalalari............................ 60
Meyliqulova Manzura Abdullayevna

Developing Law Students' Writing Competence Through the IRAC Method in Legal English Classes: A Comprehensive Study at TSUL............................ 63
Noila Mustafoyeva

Tarixiy obidalarning restavratsiya jarayonlarining o'rganilish tarixi ............................ 67
Ochilov Davron Bahodir o'g'li

Oliy ta'limda baholash jarayonini avtomatlashtirishda sun'iy intellekt texnologiyalarining qo'llanishi.......... 72
Ovxunov Iqboljon Abdunabiyevich, Mamadaliyeva Kamolaxon Xayrullo qizi

Tabiiy yorug'lik va barqaror energiya manbalarini integratsiyalashgan mini home loyihasi............................ 76
Djuraboyev Maqsudbek Karimbek o'g'li, Qodirjonov Oyatillo Abdulboqi o'g'li

Talabalarning tarixiy tafakkurini rivojlantirishda madaniy meros vositalarining pedagogik ahamiyati.......... 80
Rajabova Matluba Toshkentboy qizi

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari............................ 83
Saidova Nigora Olimovna, Jo'rayeva Nilufar Rustamjon qizi

Raqamli kommunikatsiyalarni o'smirlar shaxsiyatining rivojlanishiga ta'siri ............................ 86
Shomurotova Nigoraxon Nabijonovna

Talabalarning chizma geometriya fanini mustaqil bilish faoliyatiga oid kompetensiyalarini "Visio" dasturi vositasida rivojlantirish metodikasi ............................ 90
Tashimov Nurlan Erpolatovich

Shaxslararo munosabatlar – ijtimoiy pedagogik muammo sifatida ........ 94
Uralova Muxabbat Sanjar qizi

O'zbek tili darslarida raqamli ta'lim vositalaridan foydalanish tajribasi ........ 98
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna

Психологическая готовность разведенных людей к вступлению в новый брак и приоритеты при выборе партнера ........ 101
Саидвалиева Шодия Рихсихужа кизи

Воспитание любви к прекрасному у дошкольников в развивающей предметно-пространственной среде: теоретико-методический аспект ........ 107
Терехова Ольга Евгеньевна, Темирова Барно Кёмхоновна

Методика формирования наблюдательности у детей 6–7 лет в процессе целенаправленных прогулок-наблюдений ........ 111
Терехова Ольга Евгеньевна, Шокиржонова Мохира Илхомжон кизи

Bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlash texnologiyalari ........ 115
Artikbayeva Aziza Abror qizi

Zamonaviy darslarda guruhlarda ishlash metodikasi ........ 118
Berdiyeva Lobar Norqobulovna

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faol rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishda STEAM ta'lim texnologiyasidan foydalanish ........ 120
Esanova Maysara Umirovna

Logopediyada axborot texnologiyalarini qo'llash metodlari ........ 124
Feruza Yusupova Akildjanovna

Axborot texnologiyalarining ta'lim jarayonidagi o'rni va rivojlanish bosqichlari ........ 130
Qodirov Farrux Ergash o'g'li, Allanazarova Anora Muxobir qizi

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ilmiy-ijodiy kompetentsiyalarini rivojlantirish ........ 134
Umarov Xusniddin

Bo'lajak talabalarning individual yondashuv asosida kasbiy-ijodiy ko'nikmalarini rivojlantirish ........ 138
Arslonova Gulsora Kurbonovna

Ona tili darslarida til kompetensiyasini kognitiv-semantik yondashuv asosida shakllantirish ........ 142
Mo'minova Go'zalxon G'ulamjanovna

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari ........ 147
Maxliyo Turopova Erkin qizi

Talabalarning kreativligini musiqiy-nazariy fanlar vositasida oshirish samaradorligi ........ 153
Urinova Sabina Shuxrat qizi

Imijning ijtimoiy-psixologik fenomen sifatida talqini ........ 160
Jo'rayeva Sohibjamol Norqobilovna

Inklyuziv kompetensiya tushunchasining ilmiy-nazariy asoslari ........ 163
Abdubannobova Mahliyo Abdurashid qizi

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari ........ 167
Abdurasulova Dilnoza Abdug'ani qizi

Muxammas (taxmis) janrining o'zbek she'riyatidagi tarixiy taraqqiyoti va zamonaviy poetik talqinlari ........ 170
Avazova Sitora

Maktabgacha ta'lim tashkiloti va ota-onalar hamkorigining asosiy shakllari ........ 173
Babayeva Dono Razzakovna, Erkinova Madinabonu Otabek qizi, Xolmatova O'g'iloy Tojiddin qizi

Yangi taraqqiyot davrida talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashninig ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida ........ 177
Botirova Zohida Doniyor qizi

Logoritmikada sportga asoslangan o'yinlar ........ 180
Dilfuza Ochilova Zayniddinovna

Jismoniy tarbiyaning o'quvchilarning kognitiv rivojlanishiga ta'siri (Andijon shahridagi Prezident maktabi tajribasi asosida) ........ 184
Ibragimov Shuhratbek Iminjonovich

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Bolajak tarbiyachilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashda integrativ yondashuvning zaruriyati .................. 188
Karimova Feruzaxon Zakirovna

Effective Techniques of Teaching Foreign Language Classes: a Sample of The 4CS Method .................. 191
Khaitmuratova Zarina Sobirdjanovna

Maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual imkoniyatlarini tabiat bilan tanishtirish orqali shakillantirish .. 193
Maxmudova Durdona Mirkarimovna

O'quvchilarning kasbiy ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishning pedagogik xususiyatlari .................... 196
Mutallibjonov Ma'rufjon

Maktabgacha yoshdagi bolalarni kun tartibini to'g'ri tashkil etish .................. 200
Muxtorova Mohira Ma'rufjon qizi

Aksiologik yondashuv asosida altruistik ko'nikmalarni shakllantirish jarayonida ijtimoiy faoliyatni amalga oshirish .................. 204
Norboyeva Moxigul Shavkat qizi

O'smirlarda agressiv xulq-atvorini psixologik o'rganishning o'ziga xos xususiyatlari .................. 207
Norqulova Dildora Shavkat qizi

Raqamlashtirish jarayonida bo'lajak muhandislarni ishlab chiqarish-texnologik faoliyatiga tayyorlashning dasturiy-metodik ta'minoti .................. 211
Nurov O'tkir Xudoyberdiyevich

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etilish .................. 214
O'roqova Zilola Salomovna

Pedagogika ta'lim yo'nalishi talabalarida amaliy tayyorgarlik tushunchasi va uning mazmun-mohiyati...... 217
Qaramanov Obid Xudayberdiyevich

Pedagoglar uchun sun'iy intellekt asosidagi shaxsiylashtirilgan ta'lim imkoniyatlari .................. 221
Qarshiyev Jamshid Murotaliyevich

Talabalarda psixologik moslashuvchanlikda refleksiya mohiyati va kognitiv qobiliyatni rivojlantirish samaradorligi.................. 226
Ravshanova Nargiza Norboyevna

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida integrallashgan mashg'ulotarni tashkil etish.................. 230
S. Irisova

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida marketing faoliyatini tizimli tashkil etishning nazariy asoslari ............... 233
Sadikova Dilafruz Xusanovna, Qo'chqorova Munisa Anvar qizi

Maktabgacha yoshdagi bolalarning dialogik nutqini xalq ertaklari asosida rivojlantirish .................. 237
Seitmuratova Venera Jumamuratovna, Abduraufova Muxayyo Xabibullo qizi

Bolalarni maktabga tayyorlashda psixologik yondashuv .................. 241
Seitmuratova Venera Jumamuratovna, Sanoqulova Gulasal Nurillo qizi

Sun'iy intellektni tibbiy oliy ta'lim o'quv dasturlarini ishlab chiqishda qo'llash: innovatsion yondashuvlar va tajribalar .................. 246
Toxirova Farida Olimjonovna

Talabalarni estetik tarbiyalashda milliy xalq o'yinlaridan foydalanish modeli.................. 251
Usarov Murodjon Mamarasul o'g'li

Xalqaro kimyo olimpiadalariga o'quvchilarni tayyorlashda xalqaro baholash tadqiqotlariga asoslangan kreativ topshiriqlar va fanlararo integratsiyadan foydalanish metodikasi .......... 254
Usmanov Baxtiyor Xabibullayevich

Xoja (Sayyid Poshshoxoja ibn Abdulvahhobxo'ja) va uning asarlarining o'zbek nasridagi o'rni va ahamiyati.................. 258
Valijonova Mahzunabonu

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari boshqaruvida diversifikatsiya: tizimli yondashuv va rivojlanish strategiyalari.................. 261
Xakimova Sevara Shavkat qizi

STEAM texnologiyasini nodavlat ta'lim tashkilotlarida ommalashtirishning ijobiy tomonlari.................. 264
Xallokova Maksudaxon Ergashevna, Melnikova Zaynura

Muhammad Sodiq Qoshg'ariy asarlarida ma'naviy-axloqiy tarbiya nazariyasi.................. 267
Moxira Niyozqulova Nuraliyevna

Sun'iy intellekt texnologiyalari asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ona tili fanini o'qitish kompetentligini rivojlantirish metodikasi (AQSh tajribasi)........................................270
Olimjonova Dilnavoz Maribjon qizi

Xalqaro baholash dasturlari mohiyati va ahamiyati ........................................274
Vohidova Ibodat Hurmatullayevna

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari ta'lim-tarbiya jarayonida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv........................277
Xujamiyarov Sa'dullo Choriyevich

Davlat-xususiy sheriklik asosidagi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida jamoatchilik nazorati samaradorligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish........................................281
Xusanova Dilraboxon Botiraliyevna

Talabalarning jismoniy tayyorgarligida suzish mashg'ulotlarining ta'siri ........................................285
Zuxriddin Nasibovich Boboshev

Bo'lajak o'qituvchilarni milliy-ma'naviy qadryatlar asosida tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlari ............289
Abdullayev Muxammadimin Egamberdiyevich, Dadabayev Akramjon Askaraliyevich

Использование чат-ботов в образовательном процессе........................................294
Мадаминова Наргизахон Жахонгир кизи

Формирование гендерной культуры детей старшего дошкольного возраста в контексте государственной стратегии Узбекистана ........................................298
Намазбаева Лола Закировна, Тиллабаева Малика Хабибуллаевна

STEAM технологии в дошкольном образовании ........................................302
Садикова Дилафруз Хусановна

Системная модель социально-эмоционального обучения в Узбекистане: интеграция подходов, основанных на школьном образовании и партнерстве семьи и школы ........................................307
Санакулова Нигора

Oila qurish yoshidagi talabalar psixologik xususiyatlari........................................311
Qo'ziyeva Gulzoda Shermat qizi

Ingliz tili nutq faoliyati turlarini rivojlantirishda leksik-assotsiativ tarmoqlardan foydalanishning lingvodidaktik asoslari........................................315
Mirzakamolova Maftuna Rahimjon qizi

Talabalarga ingliz tilidagi matnlarni kommunikativ metod yordamida o'qish texnikasini takomillashtirish usullari........................................318
Mo'minova Mahliyo Axrorjonovna

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishda ona tili mashqlarining roli ........................................321
Boltayeva Guzal Tolibovna

Bo'lajak tarbiyachilarning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish ........................................324
Ziyayeva Umida Turaxodjayevna

Maktabgacha hamda boshlang'ich maktab yoshidagi bolalar jismoniy tarbiyasi tizimini modernizatsiya qilishning innovatsion istiqbollari ........................................327
A'zamov Ruhullo Mahmudjon o'g'li

Boshlang'ich sinflarda informatika fanini o'qitishning maqsadlari va vazifalari........................................333
Alikulova Bibisora Abdulvokhobovna

Bola shaxsini rivojlantirishda axborot-kommunikatsion texnologiyalarning pedagogik ahamiyati ...............336
Azimova Dilnoza Sherzodovna

Raqamli didaktika sharoitida oliy ta'limni raqamlashtirishning nazariy asoslari va pedagogik xususiyatlari ........................................339
Berdikulova Shaxnoza Erkinjon qizi

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining aqliy qobiliyatini shakllantirishda dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda shaxmat o'yinidan foydalanish imkoniyatlar ........................................343
Boboqulov Chori Urolovich

O‘zbek tilidagi “kasb-hunar” va “lavozim-amal” konseptlarining hozirgi zamon o‘zbek tili konseptosferasidagi o‘rni ............ 348
Dexqonova Muattarxon Ilxomovna

O‘quv jarayonida ijtimoiy tarmoqlar orqali bilim almashishning didaktik imkoniyatlari va metodologik asoslari ............ 352
Ernazarov Alisher Ergashevich, Pimkulova Stora Boltayevna

“Intellekt xarita” yordamida o‘quvchilarga qattiq jismlarning solishtirma issiqlik sig‘imini mavzusini tushuntirish va ularning to‘la fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish ............ 358
Eshboboyeva Muxlisa Zavqiy qizi

Inklyuziv ta’lim texnologiyalari ............ 363
Fayzullayeva Shoira Shorahmatovna

Oliy pedagogik ta’lim tizimida hamkorlikda ta’lim nazariyasi va amaliyoti ............ 366
Hojiyeva Zulfiya O‘ktamovna

Hikoya tuzishga o‘rgatish maktabgacha yoshdagi bolalarning bog‘lanishli nutqini rivojlantirishning muhim vositasi sifatida ............ 369
Imixanova Nodira Saidburxon qizi

Professional Competency Development of Future English Language Teachers: A Framework for the 21st Century ............ 374
Kamoldin Tadjiboyev

Bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanishning nazariy asoslari ............ 378
Nosirova Dilfuza

Inklyuziv sinf muhitida zaif eshituvchi bolalar bilan musiqa mashg‘ulotlarini tashkil etishning nazariy yondashuvlari ............ 383
Qizlarxon Isomova

Raqamli ta’lim muhitida mustaqil ta’limni rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalar ............ 389
Shabdullayeva Lazokatxon Orifbekovna

Boshlang‘ich sinflarda perimetr, yuza va hajmni o‘rganish metodikasi samaradorligini shakllantirish ............ 392
Shodmonova Madina Otabek qizi

Chiziqli operatorlarning spektral xossalari ............ 398
Sultonboyeva Zuhra Bobomurod qizi

Qisqa masofaga yuguruvchilar ish qobiliyatini oshirish usullari ............ 402
Utayev Z. M.

Neyropedagogik yondashuv asosida 9–11 yoshli o‘quvchilarda ingliz tilida matnni o‘qib tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirishda ijro funksiyalarining o‘rni ............ 408
Xolboyeva Nodiraxon Abdumalik qizi

Bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash muammosining dolzarbligi ............ 413
Yo‘ldosheva Dilnura Nizomjon qizi

Bo‘lg‘usi tarbiyachilarda grafik organayzerlar vositasida ekologik tarbiyani shakllantirish usullari ............ 416
O. Xo‘janiyozova, Yuldashova Sanamjon Bobomurod qizi

Взаимодействие воспитателей и родителей в процессе формирования нравственных представлений дошкольников ............ 419
Жураева Наргиза Таировна, Абдуллаева Халимахон Дилёрна

Развитие государственно-частного партнёрства в сфере дошкольного образования Республики Узбекистан ............ 423
Курбанова Нуржамал Бахбергеновна

Talaba qizlarning jismoniy va funksional tayyorgarligini shakllantirishning ilmiy metodologik asoslari ............ 426
M. M. Ma’rufov, Sh. R. Ma’rufova

Развитие языковых навыков у дошкольников через игровые методы обучения английскому языку ............ 430
Садикова Шоиста Акбаровна

"Узбекский текст в русской литературе XX–XXI веков..." ........................................ 433
**Сулаймонова Дурдонахон Равшан кизи, Иванова Ирина Николаевна**

Механизмы использования цифровых педагогических технологий для обеспечения непрерывности образовательного процесса учащихся начальных классов в условиях длительного лечения........................................ 437
**Турсунова Д. З., Холлиева Н. Х.**

Патриотическое воспитание будущих педагогов: совершенствование методики формирования любви к родине в условиях профессиональной подготовки........................................ 440
**Шарипова Холида Дехкановна**

# BOSHLANG'ICH SINFLARDA PERIMETR, YUZA VA HAJMNI O'RGANISH METODIKASI SAMARADORLIGINI SHAKLLANTIRISH

Shodmonova Madina Otabek qizi
Xalqaro innovatsion universitet
Pedagogika mutaxassisligi 1-kurs magistranti

Ilmiy rahbar: Berdiyev Bahodir Ravshanovich
Qarshi davlat universiteti "Boshlang'ich ta'lim" kafedrasi dotsenti

**Annotatsiya:** Maqolada o'quvchilarni o'qitishning barcha bosqichlarida ularning fikrlash faoliyatini faollashtirish, tayanch faktlar va kuzatishlarni o'z vaqtida umumlashtirish, ayrim masalalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash hamda bolalarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirish masalalari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** tayanch faktlar, uzunlik, massa, hajm, vaqt, mustaqil ishlash, predmet, modellar.

**Abstract:** The article discusses the need to activate students' cognitive activity at all stages of education, ensure timely generalization of key facts and observations, identify interconnections between individual topics, and develop independent work skills in children.

**Key words:** basic facts, length, mass, volume, time, independent work, subject, models.

**Аннотация:** В статье рассматривается необходимость активизации мыслительной деятельности учащихся на всех этапах обучения, своевременного обобщения основных фактов и наблюдений, выявления взаимосвязей между отдельными вопросами и развития у детей навыков самостоятельной работы.

**Ключевые слова:** основные факты, длина, масса, объём, время, самостоятельная работа, предмет, модели.

## KIRISH

Kichik yoshdagi o'quvchilarni o'qitishning barcha bosqichlarida ularning fikrlash faoliyatini faollashtirish, tayanch faktlar va kuzatishlarni o'z vaqtida umumlashtirish, ayrim masalalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash hamda bolalarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan yangi, ilmiy asoslangan usul va uslublar maktab dasturiga kiritilgan. Mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilar uzunlik, massa, hajm va vaqt tushunchalari hamda ularning o'lchov birliklari haqida dastlabki tasavvurlarga ega bo'ladilar. Dastlabki bosqichlarda o'qituvchi o'quvchilarning mazkur miqdorlar haqidagi tasavvurlarini aniqlashga e'tibor qaratadi. Shu maqsadda bir xil rangli, ammo uzunligi turlicha bo'lgan ikki dona qalam olinib, o'quvchilarga ularni ta'riflab berish taklif etiladi. O'qituvchi yo'naltiruvchi savollar orqali o'quvchilarning diqqatini aynan qalamlarning uzunligiga qaratadi, ya'ni ularning biri uzunroq, ikkinchisi esa qisqaroq ekanligini ta'kidlaydi va qalamlarni bir-biri bilan taqqoslash yo'li orqali buni asoslab berish zarurligini ko'rsatadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Boshlang'ich sinflarda perimetr, yuza va hajm tushunchalarini o'rganish metodikasi masalasi matematika o'qitish metodikasiga oid ilmiy adabiyotlarda muhim yo'nalish sifatida yoritilgan. Tadqiqotlarda mazkur tushunchalarni shakllantirishda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish, abstrakt bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog'lash zarurligi ta'kidlanadi. Perimetr, yuza va hajmni o'rganish jarayonida ko'rgazmali vositalar, modellashtirish, o'lchashga asoslangan mashqlar va real hayotiy misollardan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishi qayd etiladi. Shuningdek, adabiyotlarda o'qituvchining metodik mahorati va tanlangan usullarning maqsadga muvofiqligi mazkur mavzuni samarali o'zlashtirishning asosiy omillari ekanligi ko'rsatiladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotning maqsadi boshlang‘ich sinflarda perimetr, yuza va hajm mavzularini o‘qitish metodikasi samaradorligini aniqlash va uni oshirish omillarini belgilashdan iborat. Tadqiqot metodologik asosi sifatida kompetensiyaviy yondashuv, faoliyatga yo‘naltirilgan ta’lim, ko‘rgazmalilik va amaliyotga tayangan konstruktiv yondashuv qabul qilindi.

Tadqiqot dizayni tajriba-sinov shaklida tashkil etilib, o‘quvchilar tajriba va nazorat guruhlariga ajratildi: tajriba guruhida perimetr, yuza va hajmni o‘rgatishda modellash, o‘lchashga asoslangan amaliy topshiriqlar, geometrik figuralar bilan manipulyativ ishlar, real hayotiy vaziyatlarga yo‘naltirilgan masalalar hamda differensial yondashuv qo‘llandi; nazorat guruhida esa an’anaviy tushuntirish va mashq usullari davom ettirildi.

Ma’lumotlarni yig‘ish uchun pedagogik kuzatish, diagnostik testlar, nazorat ishlari, o‘quvchilar ishlarini tahlil qilish hamda o‘qituvchi va o‘quvchilar bilan qisqa so‘rov/intervyu usullaridan foydalanildi.

Natijalarni baholash mezonlari sifatida formulalarni qo‘llash aniqligi, o‘lchash malakasi, masalani yechish strategiyasi, xatolar tahlili va tushunchani real vaziyatga transfer qilish darajasi olindi; tajriba yakunida pre-test va post-test natijalari taqqoslanib, metodika samaradorligi dinamikasi aniqlanadi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tekis figuralarning boshqa xossalari qatorida yuzalarni o‘lchash tushunchasini kiritish amaliy usulga asoslanadi. Yuza haqidagi boshlang‘ich tushunchalarni shakllantirishga tayyorgarlik ishlari 1–2-sinflardayoq boshlanadi. Bosma asosdagi daftarlar bilan ishlash jarayonida figuralarni bo‘yash, mehnat darslarida qog‘ozdan figuralar qirqib olish, tasviriy san’at darslarida rasm chizish figuralarni tekislikning yopiq siniq chiziq bilan chegaralangan bo‘lagi sifatida qabul qilishga imkon beradi. Bolalar ko‘pincha yuzani o‘lchash tushunchasini uni ratsional hisoblash bilan aralashtirib yuboradilar. “To‘g‘ri to‘rtburchakning yuzini o‘lchash nima?” degan savolga ko‘pincha bolalar “Bu uning bo‘yini va enini o‘lchab, ularni ko‘paytirish” deb javob beradilar. Biroq to‘g‘ri to‘rtburchakning yuzini topish deganda, unda yuza birligi necha marta joylashganini aniqlash tushuniladi. Demak, biz figuralar va narsalarning yangi xossasi – yuza bilan tanishamiz.



1-rasm: **Yuza figura qanday joy egallaganini ko‘rsatadi.**

Yuza – bu miqdor, chunki u orqali figuralarni taqqoslash mumkin. Yuza o‘lchov birligi bo‘lgan kvadrat santimetr bilan tanishtirish uchun dars fragmentini ko‘rib chiqamiz. O‘qituvchi: Biz narsalarning bir necha xossalarini va ularni ifodalovchi miqdorlarni bilamiz (uzunlik, massa, sig‘im). To‘g‘ri chiziq kesmasi uzunlikka ega, to‘g‘ri to‘rtburchak, uchburchak, doira va bayroqcha esa yuzaga ega. Yuzalarni o‘lchash uchun katakchalarga bo‘lingan paletkadan foydalanamiz. Ustma-ust tushadigan figuralar teng figuralar, ustma-ust tushmaydigan, ammo yuzalari teng bo‘lgan figuralar esa tengdosh figuralar deyiladi.



2-rasm

So‘ngra kvadrat detsimetr tushunchasi bilan tanishtiriladi. Buning uchun 10 × 10 (kvadrat santimetr) o‘lchamdagi taxtachadan foydalaniladi, u 1 kv. sm li 100 ta katakdan iborat. Taxtachaning har bir tomoni 10 sm = 1 dm ga teng bo‘lgani uchun uning yuzi 1 kvadrat detsimetr deb ataladi. $1\ dm^2 = 10 \cdot 10 = 100\ sm^2$.



3-rasm

Kvadrat metr va kvadrat detsimetr oʻrtasidagi munosabat ham shu tariqa oʻrnatiladi:

$$1\ m^2 = 100\ dm^2.$$

Shuningdek, kvadrat metr va kvadrat santimetr orasidagi bogʻlanish quyidagicha ifodalanadi:

$$1\ m^2 = 100\ dm^2 \cdot 100 = 10\ 000\ sm^2.$$

Eng soʻnggi bosqichda toʻgʻri toʻrtburchak yuzasini topish oʻrganiladi. Toʻgʻri toʻrtburchakning yuzini topish uchun uning tomonlari, ya'ni boʻyi va eni oʻlchanadi hamda ularning koʻpaytmasi hisoblanadi.

Yuza birligini kiritishga tayyorgarlik davrida beriladigan topshiriqlar quyidagicha boʻlishi mumkin: uzunligi 5 sm va eni 1 sm boʻlgan toʻgʻri toʻrtburchak kvadrat santimetrlarga quyidagi rasmda koʻrsatilgandek boʻlingan. Nechta kvadrat santimetr hosil boʻldi? Ushbu toʻgʻri toʻrtburchakning yuzi 5 $sm^2$ ga teng.


4-rasm

Yuza birliklari orasidagi munosabatlarni oʻrganish hamda bu boradagi bilimlarni mustahkamlash uchun quyidagi mashqlarni kiritish foydalidir.

*1-misol:* **Kvadrat detsimetrlarda ifoda qiling:**

$$8\ m^2;\ 14\ m^2;\ 40\ m^2.$$

Koʻpgina amaliy masalalarda biror yer maydoni, devor yoki pol yuzini oʻlchashga toʻgʻri keladi. Bunday hollarda avvalo yuzani oʻlchash uchun mos oʻlchov birligini tanlash lozim boʻladi. Perimetr deb ikki oʻlchamli shaklning barcha tomonlari uzunliklari yigʻindisiga aytiladi. Quyida shakllarning perimetrini topish usullarini koʻrib chiqamiz.



5-rasm: **Shaklning perimetrini topish uchun tomonlari uzunliklarini qoʻshamiz:**

$$P=(8+10+10+18)=46.$$

*2-misol.* **Tomoni 9 cm ga teng bo'lgan muntazam beshburchakning perimetri nechaga teng?**



6-rasm

Muntazam beshburchakning perimetrini topish uchun uning barcha tomonlarining uzunliklarini qo'shamiz. Uning barcha tomonlarining uzunliklari o'zaro teng bo'ladi: P=9+9+9+9+9=45

*3-misol.* **Uchburchakning perimetri nechaga teng?**




P = 8 + 6 + 10 = 24 cm.

7-rasm

Ma'lum bir ko'pburchak, jumladan muntazam uchburchak va boshqa muntazam ko'pburchaklarning barcha tomonlari uzunliklari yig'indisiga perimetr deyiladi. Ushbu kattalik lotin alifbosidagi P harfi bilan belgilanadi. Maktab matematika kursida o'rganiladigan ko'plab formulalar kundalik hayotda doimiy qo'llanilavermaydi, biroq ayrim formulalardan vaqti-vaqti bilan foydalanishga to'g'ri keladi. Shunday formulalardan biri geometrik shaklning perimetrini hisoblash formulasidir. Perimetr geometrik shaklning barcha tomonlari uzunliklarining umumiy yig'indisini ifodalaydi. Oddiy qilib aytganda, perimetrni topish uchun geometrik shaklning barcha tomonlari uzunliklari o'lchanadi va olingan qiymatlar qo'shiladi. Bunda chizg'ich, o'lchov lentasi, o'lchash tasmasi kabi uzunlikni o'lchash asboblaridan foydalaniladi.

Perimetrni ifodalashda uzunlik o'lchov birliklari, ya'ni santimetr, millimetr, metr va boshqa birliklardan foydalaniladi. Ko'pburchakning har bir yon tomoni uzunligini aniqlash uchun o'lchash moslamasi tomonning bir uchidan ikkinchi uchigacha qo'yiladi, bunda o'lchov shkalasining boshlanish nuqtasi tomonning bir uchiga to'g'ri kelishi lozim. Shkaladagi ikkinchi ko'rsatkich tomonning uzunligini bildiradi. Xuddi shu tartibda shaklning barcha tomonlari o'lchanadi va olingan natijalar yig'indisi perimetrni tashkil etadi. Perimetrning o'lchov birligi shakl tomonlarini o'lchashda ishlatilgan birlik bilan bir xil bo'ladi.

To'rtburchakning perimetri ham uning barcha tomonlari uzunliklari yig'indisidan iborat. Biroq to'rtburchakda qarama-qarshi tomonlar o'zaro teng bo'lgani sababli, perimetrni hisoblashda faqat ikkita qo'shni tomon uzunligini yig'indisini ikki marta olish kifoya qiladi.

Kundalik hayotda perimetrni hisoblash turli sohalarda qo'llaniladi, ayniqsa qurilish, geodeziya, topografiya, arxitektura va rejalashtirish ishlarida muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, perimetrni hisoblash zarurati ko'pincha to'siqlarni o'rnatish, hududni o'rash yoki ma'lum bir chegarani belgilash uchun qancha material talab etilishini aniqlash bilan bog'liq bo'ladi.




8-rasm: **Har qanday yopiq geometrik shakl perimetrga ega.**



9-rasm

Rasmda perimetr sariq rangda ko'rsatilgan. Aylananing perimetri ko'pincha uning uzunligi deb ataladi. Perimetr uzunlik birliklarida ifodalanadi va unga mm, sm, dm, m, km kabi birliklar kiradi. Barcha ko'pburchaklar uchun perimetrni topish har bir tomon uzunligini qo'shish orqali amalga oshiriladi, ya'ni ko'pburchakning perimetri har doim uning tomonlari uzunliklari yig'indisiga teng bo'ladi. Masalan,




10-rasm

P = (2 sm + 5 sm) · 2 = 7 sm · 2 = 14 sm. To'g'ri burchak – bir nuqtadan chiqib, o'zaro perpendikulyar joylashgan ikki nurdan hosil bo'lgan shakldir. To'rtburchak – barcha burchaklari to'g'ri burchakdan iborat bo'lgan ko'pburchakdir; uning yon tomonlari uzunlik va kenglik deb ataladi. Maydon (kvadrat) – tomonlari o'zaro teng bo'lgan to'rtburchakdir. Ko'pburchaklar bilan tanishishda ularning uchlarini A, B, C, D harflari bilan belgilash mumkin. Matematikada chizmalarda nuqtalar nomlarini lotin alifbosidagi harflar bilan belgilash odatiy hisoblanadi.

*1-masala:* **Uchlari A, B, C, D bo'lgan, tomonlari 3 sm va 4 sm ga teng to'rtburchak chizing. ABCD to'rtburchakning perimetrini toping.**




11-rasm

P=(3+4)*2=7*2=14

*Javob:* To'g'ri to'rtburchakning perimetri 14 cm ga teng.

*2-masala.* **Tomonlari 5 cm, 4 cm, 3 cm bo'lgan uchburchakning perimetri qanday topiladi?**

*Yechish:* Oldin tasavvur hosil bo'lishi uchun uchburchakni chizib uning tomonlarini belgilab chiqamiz:

$$P=3\text{ cm}+4\text{ cm}+5\text{ cm}=12\text{ cm}.$$

*Javob:* Perimetr 12 cm.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish maqsadida dastlabki bosqichlarda o'qituvchining o'quvchilarda mazkur miqdorlar haqidagi mavjud tasavvurlarni aniqlashi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yondashuv boshlang'ich sinflarda perimetr, yuza va hajm tushunchalarini o'rganish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Jumayev M. E. Matematika o'qitish metodikasi (OO'Y uchun darslik). – Toshkent: Turon-Iqbol, 2016-y. – 426 b.
2. Berdiyev B. R. Matematika o'qitish metodikasi. I kitob (OO'Y uchun darslik). – Qarshi: Fan va ta'lim, 2021-y. – 260 b.
3. Berdiyev B. R. Matematika o'qitish metodikasi. II kitob (OO'Y uchun darslik). – Qarshi: Fan va ta'lim, 2021-y. – 250 b.
4. Jumayev M. E. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasidan praktikum (OO'Y uchun o'quv qo'llanma). – Toshkent: O'qituvchi, 2004-y.
5. Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017-y. – 488 b.

| | |
|---|---|
| 13.00.00 | Pedagogika fanlari |
| 13.00.01 | Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi |
| 13.00.02 | Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha) |
| 13.00.03 | Maxsus pedagogika |
| 13.00.04 | Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.05 | Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.06 | Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha) |
| 13.00.07 | Ta’limda menejment |
| 13.00.08 | Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.09 | Ijtimoiy pedagogika |
| 07.00.00 | Tarix fanlari |
| 19.00.00 | Psixologiya fanlari |
| 01.00.00 | Fizika-matematika fanlari |
| 02.00.00 | Kimyo fanlari |
| 03.00.00 | Biologiya fanlari |
| 09.00.00 | Falsafa fanlari |
| 10.00.00 | Filologiya fanlari |
| 11.00.00 | Geografiya fanlari |

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2026. №1(2)**


© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami: № 136361**.

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.